



CHANGES IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF THE UZBEKISTAN SSR DURING WORLD WAR II

Obidjon S. Alimov
independent researcher
Karshi State University
Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: front, education, school, teacher, textbook, agriculture, illiteracy.

Received: 12.09.24

Accepted: 14.09.24

Published: 16.09.24

Abstract: Relying on historical sources, it can be said that during the years of World War II, one of the most difficult periods of our history, several reforms were carried out in the science and education system of our country.

In this research, issues such as deficiencies in the field of education and the need for personnel, involvement of students in production processes in the Uzbek SSR during the war years were analyzed.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTON SSRNING TA'LIM MUASSASALARIDAGI O'ZGARISHLAR

Obidjon S. Alimov
mustaqil tadqiqotchi
Qarshi Davlat Universiteti
Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: front, maorif, maktab, o'qituvchi, darslik, qishloq xo'jaligi, savodsizlik.

Annotatsiya: Tarixiy manbalarga tayangan holda aytish mumkinki, tariximizning eng og'ir davrlaridan biri bo'lgan Ikkinchi jahon urushi yillarida mamlakatimiz fan va ta'lim tizimida bir necha islohotlar amalga oshirilgan.

Mazkur tadqiqot ishida, urush yillarida O'zbekiston SSRda ta'lim sohasidagi kamchiliklar va kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, o'quvchilarni ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilinishi kabi masalalar tahlil qilingan.

ИЗМЕНЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР ВО ВРЕМЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Обиджон С. Алимов

независимый исследователь

Каршинский Государственный Университет

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фронт, образование, школа, учитель, учебник, сельское хозяйство, неграмотность.

Аннотация: Опираясь на исторические источники, можно сказать, что в годы Второй мировой войны, одного из самых тяжелых периодов в нашей истории, в системе науки и образования нашей страны было осуществлено несколько реформ.

В данном исследовании были проанализированы такие вопросы, как недостатки в сфере образования и потребности в кадрах, вовлечение студентов в производственные процессы в Узбекской ССР в годы войны.

KIRISH

Ikkinci jahon urushi dunyodagi deyarli barcha xalqlarning boshiga iztirobli kunlarni olib kelishi bilan birga, dunyo davlatlarining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy sohalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Hech kimga sir emaski, ikkinchi jahon urushi yillarida barcha sohalar qatorida ta'limga sohasida ham salbiy o'zgarishlar paydo bo'lgan. Shuningdek, barcha davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekiston SSRning ta'limga muassasalaridagi o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotiga putur yetkazgan.

ASOSIY QISM

Ko'plab tadqiqotlarda O'rta Osiyoda uzoq yillardan buyon ta'limga katta e'tibor berilganligini ayniqsa, temuriylar davri misolida ko'rishimiz mumkin. Ammo, Abdusattor Jumanazarning Buxoro ta'limga tizimi tarixi haqidagi ma'lumotlardan xonliklar davriga kelib dunyoviy fanlarga bo'lgan e'tibor kamayganligini bilib olishimiz mumkin. Q.Rajabov O'zbekiston XX asrda, O'zbekiston tarixi kitoblarda O'zbekiston SSRda ta'limga tizimi va urush davridagi maktablar faoliyati haqida umumiyligi ma'lumotlar berilgan. Shu jumladan, Turdiyev S., Sirojov O., Mirzaqulov B., Safarova Z. kabi mualliflar O'zbekiston SSRdagi ta'limga tizimi bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratganlar. Biroq urush davrida ta'limga muassasalarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan masalalar to'liq holda yoritilmagan.

1941 yilning 22-iyun sanasida Germaniyaning fashist qo'shinlarining SSSR hududiga bostirib kirishi, barcha xalqlar qatori o'zbek xalqiga ham iztirobli kunlarni olib keldi. Navqiron

yig'itlarning urushga safarbar qilinishi natijasida, ayollar, qariyalar va bolalar front ortidagi ishlarga jalb qilingan. "Hamma narsa front uchun" shiori ostida, mamlakatdagi barcha soha tarmoqlari qatori ta'lif sohasi ham frontga moslashtirildi. o'

O'zbekistonda sovet davlatining boshqa hududlari qatori ta'lif sohasida faoliyat ko'rsatgan o'qituvchilar harakatdagi armiya safiga safarbar etilishi natijasida, avvalo, maktablarda kadrlar muammosi kelib chiqdi. Urush tufayli turmush sharoitining yomonlashuvi tufayli ko'plab bolalar mакtabga borishni to'xtatdi. O'quvchilar kontingentini saqlashda qiyinchiliklar yuzaga keldi. Qolaversa, mакtab yoshidagi bolalar ayollar bilan teng ravishda frontga ketgan erkaklar o'rниga asosiy ishchi kuchiga aylandi. O'quvchilar sanoat korxonalari va qishloq xo'jaligi dalalarida faoliyat ko'rsatib, o'qish uchun vaqt topmadidi.

Davlat ta'lif sohasi xodimlaridan ham o'qitish, ham ishlab chiqarish rejalarini birdek bajarishni talab qildi. Jumladan, 1941 yilning 28 iyun sanasida O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligining bo'lib o'tgan yig'ilishida barcha xalq maorifi sohasidagi xodimlarining oldidagi birinchi vazifa – frontga yordam berish va mamlakat mudofaasini mustahkamligini ta'minlashda o'z hissalarini qo'shishlari kerakli takidlandi. Bunga javoban, 1941 yilning iyun oyida qishloq xo'jaligidagi ishlarga ko'maklashish maqsadida Buxoro viloyatidagi xalq maorifi xodimlardan 2100 nafar o'qituvchi va 23 700 nafar o'quvchilar jamoa xo'jaliklariga ko'maklashishganlar[1].

O'zbekistonda nafaqat xodimlar, qishloq xo'jaligi kengashlari, kolxozlar rahbarlari, balki maktab xodimlari uchun partiya mas'uliyatni o'z zimmalariga olmagan, o'quvchilar o'qishdan ajralib, qishloq xo'jaligi ishlariga, tashbaqa terishga va temir tersaklarni yig'ishga tez-tez safarbar etilgan.

Urush yillarida maktablarning moddiy-texnikaviy ahvoli va kadrlar bilan ta'minlash darjasini yaxshi emas edi. Chunki urushning dastlabki kunlaridayoq juda ko'p o'qituvchilar frontga, front ortidagi ishlab chiqarish korxonalariga ketganligi, ularni o'rnnini to'ldiruvchilar bo'lmanligi, oliygochlarning yuqori kurs studentlari ham frontga jalb qilinganligi sababli kadrlarga bo'lgan talabni oshirib yubordi. Kadrlarga bo'lgan muammoni hal etish maqsadida yuqori sinf o'quvchilarga boshlang'ich sinflarda dars o'tishga ruxsat berilgan.

Maqolada urush yillarida O'zbekiston SSRda ta'lif sohasidagi kamchiliklar va kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, o'quvchilarni ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilinishi kabi masalalar va uning mohiyatini yoritib berishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik, usullaridan foydalanildi.

Iqtisodiy qiyin davrlarda o'quvchilarni qishloq xo'jalik ishlari bilan banligi maktablarda o'quvchilar sonini kamayishiga olib kelgan. O'zbekiston partiya tashkilotlari ishchi yoshlarni o'qitishni tashkil etishdagi kamchiliklarga qarshi tadbirlar olib bordi. Birinchi navbatda, ishchi

yoshlarni ta’limga jalb etish rejalariga to’sqinlik qiluvchi tendensiyalar bostirildi. Maxsus jihozlar, o‘qituvchilar, darsliklar yetishmasligi bilan bog‘liq qiyinchiliklarni yengib o‘tish kerak edi. Bu faktlar o‘quv yilining o‘rtalarida ishchi va qishloq yoshlarning maktablarni tashlab ketishiga sabab bo‘lgan.

Ko‘pchilik oziq-ovqat va kiyim-kechak yetishmasligi, o‘ta og‘ir turmush sharoiti tufayli mактабни тарк этган. Oilaviy ahvoli juda o‘gir bo‘lgan oilalarning farzandlar mактабларга bormasdan oilasini oziq-ovqat bilan ta’minalash maqsadida tinim bilmay ishlashgan. O‘smir yoshdagilar boquvchisini yo‘qotgan oilalarni boquvchisiga aylanishgan.

Moddiy ta’mindagi tanqislik, xususan, o‘quv binolari, darsliklar, kadrlar yetishmasligi ta’lim sohasi ishini yanada qiyinlashtirdi. Dushman egallagan hududlardan ko‘chirib keltirilgan aholi vakillarini, gospitallar, bolalar uylari aksariyat hollarda mактаб binolarida joylashtirilgan edi[2]. Urush yillarida yangi mактабlar qurilmasdan ta’mortalab mактаб binolari mablag’lar yetarli darajada ajratilmagan. Urush oldidan qurilgan 360 ta shahar mактabi binolari respublikaga ko‘chirib keltirilgan harbiy korxonalar ishchilari uchun yotoqxonalarga, gospitallarga va bolalar uylariga ajratib berildi.

Masalan, birgina Toshkent shahrining o‘zida 42 ta mактаб binosi evakuatsiya qilingan korxona va gospitallarga bo‘shatib berildi[8]. Ko‘pgina shahar mактабlarida o‘quvchilar 3 smenada o‘qishga majbur bo‘ldi. Mактаб uchun zarur jihozlar, darsliklar, o‘quv ashyolari, derazalar uchun oyna, turlimebellar va yoqilg‘i etishmadi. Texnik ishchilar yo‘qligi mактаб binolarini o‘z vaqtida ta’mirlashda qiyinchilik tug‘dirdi. Jumladan, 1940-1941 yillarda O‘zbekiston SSR hududida 5504 ta [3] umumta’lim mактabi bo‘lib, 1944-1945 yillarda 4475 taga kamaygan [4]. Bundan tashqari, ba’zi rahbarlarning e’tiborsizligi sababli mактаб binolardan boshqa maqasatlarda foylanilgan.

Masalan, Qashqadaryo viloyatidagi xalq ta’limi bo‘limining 1942-1943 yillardagi hisobotida viloyatda mavjud mактаб binolarining yarmidan ko‘prog’i qarovsiz holatdaligi, mavjud binolardan 24 tasi umuman foydalanib bo‘lmas ahvolda ekanligi qayd etilgan. Tumanlardagi mактабlarga umuman e’tibor berilmagan.

Masalan, Yakkabog’, Dehqonobod, Chiroqchi tumanlaridagi mактаб binolari juda abgor, xaroba ahvolda bo‘lib, binolardan omborxona, uzoqroq masofadan bozorga keladigan insonlar uchun turar joylar sifatida foydalanilgan. Ba’zi hollarda esa uy hayvonlari saqlaydigan molxonalarga aylantirilgan. Jumladan, o‘quvchilarning mактабlarga qatnamasligi va ba’zi sabablarga ko‘ra 1943 yilning 9 yanvarigacha Yakkabog’ tumanining markazidagi mактаб binosidan omborxona sifatida foydalanishgan. Bundan tashqari evakuatsiya qilingan aholi va gospitallaga ham bo‘shatib berilgan.

Masalan, Shahrisabz shahrida joylashgan Pushkin nomidagi maktabning binosidan kasalxona sifatida foydalanishgan.

Urush davrida o‘quvilar uchun o‘quv qurollari va maktab darsliklari yetishmagan. Ayniqsa rus sinflariga darsliklar markazdan jo‘natilar edi. O‘zbek tilidagi maktab darsliklarida ham yetishmovchiliklar ko‘p bo‘lgan. Sababi, 1940 yilda barcha o‘quv darsliklari eski o‘zbek yozuvidan krill yozuviga o‘tkazilishi haqida qaror qabul qilingan. Natijada yangi darliklar juda kam bo‘lganli va krill alifbosida o‘qish bir qator muammolarni paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Urushning juda qiyin davrlarida ba’zi fanlar qisqartirilgan, tanafuslar 40 daqiqa qilib belgilangan. O‘quvchilarini maktabga qamrab olish ko‘rsatkichini oshirish uchun turli tashkilotlar, korxonalar rahbarlari, kolxozlar va xo‘jaliklar birgalikda harakat qilishlari talab etildi. Masalan, 1943 yil yanvarda Qarshi shahri xalq ta’limi bo‘limining hisobotlarida maktablar haqida so‘z yuritilib, bir qator jiddiy kamchiliklarni qayd etiladi. 1942 yil sentyabrdan 1943 yil yanvarga qadar, maktablarda davomat 83,2 % bo‘lgan.

Jismoniy tarbiya darslari ko‘paytirlib, mudofaa tizimiga kadrlar tayyorlash maqsadida harbiy mashg’ulotlar ham olib borilgan. Masalan, Buxoro viloyatidagi maktablarda jismoniy-harbiy ishlarni o‘rgatishga katta e’tibor qaratilgan. Maktab o‘quvchilariga miltiqni qanday ushslash va undan o‘q otish borasida dars mashg’ulotlari olib borilgan. Bunday harbiy tayyorgarliklar darslardan keyin ham davom ettirilgan. 1944 yil 1 aprelgacha Buxoro viloyati maktablaridagi 64311 nafar maktab o‘quvchilariga maxsus harbiy tayyorgarlik darslari o‘tilgan[6].

Maktablarda o‘quvchilarga harbiy tayyorgalikka o‘rgatishdan maqsad frontga yuboriluvchi yoshlarni harbiy-mudofaa ishlariga tayyorlashga xizmat qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Viloyatdagi aksariyat maktablarda dars namunali olib borilganligi, tarbiyaviy ishlarni o‘z vaqtida o‘tkazganligi tufayli viloyat maktablarini bitirgan ko‘plab o‘quvchilar frontga, bir qismi esa front ortini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shdilar.

1942 yil aprelda O‘zbekiston hukumati shaharliklar, talabalar va o‘quvchilarni ommaviy ravishda qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilish haqida qaror qabul qildi. Viloyatlarda asosan o‘qituvchilar iborat bo‘lgan maxsus targ‘ibot-tashviqot guruahlari faoliyat ko‘rsata boshladi. 1942 yil may oyida Buxoro viloyatida 284 targ‘ibot-tashviqot guruhiga 7586 targ‘ibotchi uyushgan bo‘lib, viloyatda 645 targ‘ibot-tashviqot manzili mavjud edi[7].

Oziq-ovqat tanqis bo‘lgan yillari maktab o‘quvchilari mehnat bilan band bo‘lib, maktablarga umuman borishmagan. Bunday holatlar yuqori sinflardagi o‘quvchilarda ko‘proq kuzatilgan. Jumladan, Buxoro viloyatida 1941-1942 yillarda uyqori sinflarda o‘qiydigan maktab

o‘quvchilari 1137 nafarni tashlik etgan bo‘lsa, 1943-1944 yillarda 715 nafar o‘quvchi tahsil olgan.

Viloyatdagi o‘rta maktablar 1942-1944 o‘quv yillarida 3716 nafar o‘quvchini o‘qitishi kerak edi. Ammo, rejani 23,2 foizigina bajarilib, o‘quvchilar mакtablarga bormagan. Buxoro viloyati maorif bo‘limidagi mudir o‘rinbosari V.N. Narishkin “viloyatda mакtab yoshidagi bolalarning 13 foizi mакtablarga qamrab olinmagan, bunday holatlarni Karmana, Konimex, Sverdlov va Kogon tumanlarida kuzatish mumkin”- deb yozadi. Yuqoridagi ma’lumotga tayanadigan bo‘lsak, mакtabga borishi kerak bo‘lgan bo‘lagn bolalar mакtablarga qabul qilinmaganligi va bu holatlar hech kimni tashvishga solmaganligini ham ko‘rishimiz mumkin.

Mahalliy partiya organlari o‘z majlislarida savodsizlikka barham berish bilan bog‘liq masalalarни doimiy ravishda muhokama qilib bordi. Deyarli barcha mакtablardagi ta’lim dasturi o‘quv yili tugashidan ancha oldin to‘xtab qoldi va dastur tugallanmadi. Bu masalaga jiddiy qaramagan ayrim raykomlar va raykom ijroiya qo‘mitasining faoliyati yig‘ilishlarda tanqid qilindi.

XULOSA

Xullas urush yillarida O‘zbekistonda o‘qituvchilarning frontga safarbar etilishi kadrlar muammosini, evakuatsiya qilingan aholi va kasalxonalar mакtab binolariga joylashitirilishi natijasida binolar yetishmasligi, darsliklar va o‘quv jihozlarini kamligi, oilalar nochor ahvoldaligi sababli o‘quvchilarning mакtablarga bormasligi savodsizlikni oshishiga sabab bo‘lagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Buxoro viloyati davlat arxivi. Fond 1023, 1-yozuv, 216-ish, 113-varaq.
2. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinci kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. -Toshkent.: SHarq, 2000. -B.492.
3. Советский Узбекистан за 40 лет.—Т.: Uzbekistan. 1964. —С. 313.
4. O‘zMA, 94-fond, 7-ro‘yxat, 91- yig’ma jild, 1-varaq.
5. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 1-fond, 1- ro‘yxat, 141- yig’ma jild, 1-varaq.
6. Mirzaqulov B. Buxoro viloyati urush yillarida. -Buxoro: “Muharir”, 2017. -B.62.
7. Krasnaya Buxara. 22 noyabr, 1942.
8. Karimov R.A. Партийное руководство над развитием культуры Узбекистана. –Т.: Uzbekistan, 1982. –С. 62.